

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktabr holatiga 2554,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 41,4 ming kishiga yoki 1,6 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 899,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 35,5%), qishloq aholisi soni 1634,7 ming kishini (60,5 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-sentabr

- Aholi soni 41,4 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 49,2 ming nafarni tashkil etdi.
- 7,8 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 16,6 mingta nikoh va 1,4 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.


Surxondaryo viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-sentabr oylarida)

**Tirik tug'ilganlar
49,2 ming bola**



**Vafot etganlar
7,8 ming kishi**


**Ko'chib kelganlar
9,9 ming kishi**



**Ko'chib ketganlar
11,1 ming kishi**

Demografik holat

Hudular kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2018 yil 1 oktabr holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 382,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,0 %ni) va Qumqo'rg'on 226,3 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 211,9 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Termiz tumanida 106,0 ming kishi (4,1 %) tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 49,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 25,7 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Jarqo'rg'on (26,4 promilledan 27,5 promillega), Denov (26,3 promilledan 27,0 promillega), Qumqo'rg'on (25,2 promilledan 26,0 promillega), Termiz shahrida (20,7 promilledan 21,4 promillega) kuzatildi.

**Surxondaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni
(2018 yil yanvar-sentabr oylaru)**

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlardan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola **tirik tug'ilgan hisoblanadi**. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Hududlar	2017 y.		2018 y.		O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	
Surxondaryo viloyati	47 674	25,7	49 191	26,0	1 517
Termiz sh.	2 206	20,7	2 307	21,4	101
tumanlar:					
Oltinsoy	3 267	26,3	3 373	26,6	106
Angor	2 385	25,5	2 504	26,2	119
Boysun	2 247	26,4	2 163	24,9	-84
Muzrabot	2 599	26,0	2 539	24,9	-60
Denov	7 308	26,3	7 661	27,0	353
Jarqo'rg'on	4 058	26,4	4 329	27,5	271
Qumqo'rg'on	4 132	25,2	4 369	26,0	237
Qiziriq	3 412	28,2	3 508	28,2	96
Sariosiyo	3 584	24,7	3 595	24,3	11
Termiz tumani	1 951	25,6	2 014	25,7	63
Uzun	3 332	26,6	3 287	25,7	-45
Sherobod	3 414	25,0	3 435	24,7	21
Sho'rchi	3 779	25,9	4 107	27,6	328

Demografik holat

Vafot etganlar

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 7,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamayди (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,4 promille bo'lган).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan kamayishi Angor (5,1 promilledan 4,3 promillega), Denov (4,3 promilledan 4,0 promillega), Jarqo'rgon (4,8 promilledan 4,3 promillega), tumanlarida kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha vafot etganlar soni
(2018 yil yanvar-sentabr oylari)**

Hududlar	2017 y.		2018 y.		O'sish sur'ati o'tgan yilga nis- batan +,- (kishi)
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	
Surxondaryo viloyati	8 170	4,4	7 768	4,1	-402
Termiz sh.	499	4,7	503	4,7	4
tumanlar:					
Oltinsoy	482	3,9	479	3,8	-3
Angor	478	5,1	413	4,3	-65
Boysun	371	4,4	358	4,1	-13
Muzrabot	426	4,3	435	4,3	9
Denov	1 191	4,3	1 131	4,0	-60
Jarqo'rg'on	746	4,8	671	4,3	-75
Qumqo'rg'on	724	4,4	667	4,0	-57
Qiziriq	483	4,0	437	3,5	-46
Sariosiyo	553	3,8	568	3,8	15
Termiz tumani	405	5,3	383	4,9	-22
Uzun	567	4,5	518	4,1	-49
Sherobod	571	4,2	539	3,9	-32
Sho'rchi	674	4,6	666	4,5	-8


Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 7,8 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 63,1 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,2 %i o'simtalardan, 5,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 2,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan 2,2 %i yuqumli va parazitar kasalliklaridan hamda 15,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 57,7 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 21,4 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 10,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 41,4 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 40,2 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 39,5 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
41,4 ming kishi

Demografik holat

N i k o h . 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Angor (145 kishi), Oltinsoy (242 kishi), Uzun (130 kishi), Qiziriq (135 kishi) to'g'ri kelmoqda.

N i k o h d a n a j r a l i s h l a r . 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti, 0,8 promille ni tashkil etdi. Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Denov (21 kishi), Jarqo'rgon (16 kishi), Qiziriq (15 kishi), Sariosiyo (24 kishi), to'g'ri kelmoqda.



Tuzilgan nikohlar va ajrimlar taqsimlanishi (2018 yil yanvar-sentabr kishi, o'sish o'tgan yilga nisbatan)



Hududlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)
<i>Surxon daryo viloyati</i> Termiz sh. tumanlar:	17 348	16 563	-785	1 307	1 430	123
	939	956	17	140	140	0
			0			0
	1 179	937	-242	60	71	11
	976	831	-145	56	67	11
	698	592	-106	61	63	2
	771	761	-10	58	74	16
	2 683	2 736	53	233	254	21
	1 627	1 711	84	96	112	16
	1 630	1 541	-89	92	90	-2
	1 305	1 170	-135	62	77	15
	1 244	1 175	-69	98	122	24
	639	679	40	78	60	-18
	1 101	971	-130	79	103	24
	1 193	1 224	31	92	97	5
	1 363	1 279	-84	102	100	-2

Migratsiya. 2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9,9 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 11,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,2 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,3 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi) (2018 yil yanvar-sentabr)

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Denov tumanida (minus 0,4 ming kishi), Jarqo'rg'on (minus 0,2 ming kishi), Termiz sh (minus 0,8 ming kishi), Sho'rchi (minus 0,1 ming kishi), qayd etildi.

	2017 yil yanvar-sentabr	2018 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	10,9	9,9
Ko'chib ketganlar	12,2	11,1
Migratsiya saldosi	-1,3	-1,2

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: X.O'rolov

(71) 230-85-86

(76) 223-07-09